



Abdulla Qahhor

O'zbekiston xalq yozuvchisi

Abdulla Qahhor tavalludining

100 yilligini nishonlash to'g'risida

Gazeta Toshkent shahar MRM tomonidan nashrdan chiqdi.

Badiiy muharrir:

300-maktabning

ona tili va adabiyot o'qituvchisi Nigora Umarova

Dunyoda nom ko'p. Ularning ko'plari yo quloqqa chalinmaydi, yoxud kishining xotirasida iz qoldirmay, shamolday o'tib ketadi. Dunyoda hech kimning nomi o'z-o'zidan chiqmaydi. Nom chiqarmoq igna bilan quduq qazishdan yengil emas. Ter to'kib qozonilgan nomning ildizi chuqur bo'ladi, shoxi osmonga yetadi. O'zbek adabiyotini bog'ga o'xshatsak, uning azim chinorlaridan biri Abdulla Qahhor edi. Abdulla Qahhor haqiqatparvar, millatparvar edi. Barcha mutaxassislar e'tirof etganlaridek, chinakam so'z zargari edi. Adib so'zni isrof qilmaslik uchun bir asarni necha qayta ishlaganini eshitganmiz. Adib asarlarining tili buni isbotlaydi. Shuning barobarida, Abdulla Qahhor asarlarida ishlatgan ko'p so'zlar aforizmga aylanib ketganini ta'kidlash kerak. O'zini hurmat qilgan millat adabiyot ravnaqiga e'tibor beradi, uning rivoji uchun kunayadi. Millatning millat ekanini belgilovchi birlamchi omil uning tili va adabiyotidir. Abdulla Qahhor adabiyot taqdiri uchun qayg'urgan haqparast adib edi...

Veb sahifamizda Abdulla Qahhorning hayoti va ijodini qisqacha yoritishga harakat qildik.

Samimiyat ila Nigora

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori

O'zbek adabiyoti va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan atoqli adib, O'zbekiston xalq yozuvchisi Abdulla Qahhor ijodiy merosining yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash borasida muhim ahamiyatga ega ekanini inobatga olib hamda yozuvchi tavalludining 100 yilligini keng nishonlash maqsadida:

1. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazining Abdulla Qahhor tavalludining 100 yilligini nishonlash to'g'risidagi taklifi qabul qilinsin.

Abdulla Qahhor tavalludining 100 yilligiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha tashkiliy qo'mita tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tashkiliy qo'mita bir oy muddatda tegishli vazirliklar va idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda yubiley tadbirlari rejasini ishlab chiqsin va uni amalga oshirishga kirishsin.

Jumladan:

Fanlar akademiyasi, Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi bilan birgalikda 2007 yilning sentabr oyida «Abdulla Qahhor ijodining ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati» mavzusida ilmiy-amaliy konferensiya, O'zbekiston milliy

akademik drama teatrida adib tavalludiga bag'ishlangan tantanali adabiy-badiiy kecha o'tkazish;

2007 yilning may oyigacha Abdulla Qahhor uy-muzeyining ekspozitsiyasini boyitish, muzeydagi mebellar va san'at asarlarini restavratsiya qilish, muzey binosi tomini kapital ta'mirlash bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish;

O'zbekiston teatrlarida Abdulla Qahhor asarlari asosida spektakllar sahnalashtirish choralarini ko'rsin.

3. Toshkent shahar hokimligi bir oy muddatda Badiiy akademiya va boshqa tegishli tashkilotlar bilan birgalikda Abdulla Qahhorning haykalini yaratish va uni belgilangan tartibda o'rnatish bo'yicha taklif kiritilsin.

4. Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim hamda Xalq ta'limi vazirliklari va Yozuvchilar uyushmasi hamkorlikda bir oy muddatda ta'lim muassasalarida Abdulla Qahhor hayoti va ijodiga bag'ishlangan adabiy-badiiy tadbirlar, davra suhbatlari, ijodiy uchrashuvlar tashkil etish rejasini ishlab chiqsin.

5. O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi Fanlar akademiyasi va Yozuvchilar uyushmasi bilan birgalikda adibning 100 yilligiga bag'ishlab Abdulla Qahhorning bir jildlik saylanma asarlarini hamda Kibriyo Qahhorovanning "Chorak asr hamnafas" xotiralar kitobini qayta nashr etsin.

6. «O'zbekkino» milliy agentligi 2007 yilning iyun oyigacha Abdulla

Qahhorning hayoti va ijodiga bag'ishlangan yangi hujjatli film yaratsin.

7. O'zbekiston Aloqa va axborotlashtirish agentligi 2007 yilning iyul oyigacha Abdulla Qahhor siyomosi tushirilgan va uning asarlari mavzusi asosida ishlangan pochta markalari hamda konvertlar turkumini chiqarsin.

8. O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston Milliy teleraudiokompaniyasi va ommaviy axborot vositalariga adib hayoti va ijodi to'g'risida turkum ko'rsatuvlar hamda radioeshittirishlar tayyorlash, matbuotda maqolalar chop etish va yubiley tadbirlarini keng yoritish tavsiya etilsin.

9. Moliya vazirligi yubiley tadbirlarini moliyalashtirishni 2007 yil uchun tasdiqlangan budjet parametrlarida madaniyat sohasi uchun nazarda tutilgan mablag'lar doirasida amalga oshirishni ta'minlasin.

10. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari R.Qosimov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov

Toshkent shahri, 2007 yil 8 yanvar



Abdulla Qahhor va Kibriyoxonim

S i r o j i d d i n S a y y i d H a q s o ' z

Ulug' Vatan adabiyoti

Ulug' Vatan kabi – ulug' qurbonlar

Evaziga ro'yobga kelgan.

Eh, bunda ham to'kilgan qonlar,

Laxta-laxta dillarning qoni.

Do'stim, bu kitobni o'qi,

Bu – Abdulla Qahhorning joni.

“Yoshlar bilan suhbat” emas, ko'r,

Nihol iste'dodning tilagidir bu.

Do'stim, bu kitobni ko'zlaringga surt,

Abdulla Qahhorning yuragidir bu.

Shartmas, yozuvchini badarg'a qilmoq,

Uni zindonlarda chiritmoq shartmas.

Uning atrofiga naslu nasabi

Noma'lum nokaslar urchitilsa – bas.

Fisqu-fujurlarga farovon tuzum,

Kattasidan tortib kichigigacha –

Dushman deb sanagan Qahhorning yozgan

Asaridan tortib kuchugigacha.

Zamon shundoq edi –

Mustabid zamon

Adibning haq so'zin kemirolmadi.

Tog'day vujudini yemirdi-yu, lek

Uning iymonini yemirolmadi.

Haq so'zni har kim ham aytavermagan,

Haq so'z alal-oxir muhtaram aylar.

U so'zlar hozir ham uyqu bermagay

Adabiyotdagi mutahamlarga.

“Chorak asr hamnafas” emas,

Chorak asr dildosh, og'riqdosh.

Bo'lib yashagansiz, Kibriyo opa.

Yosh shoirlar o'qir – ko'zlarida yosh.

Millatni ko'targay ba'zan bir asar,

Ozod mamlakatning osmonidir bu.

Adabiyot nima desalar agar –

Abdulla Qahhorning vijdonidir bu.

A b d u l l a Q a h h o r h a y o t i v a i j o d i n i n g s o l n o m a s i

1907-yil 17 sentabr. Qo'qon shaharidagi Ko'mir bozori mahallasida tug'ildi.

Otasi temirchi bo'lib, qishloqma-qishloq ko'chib yurgan. Shuning uchun yozuvchining yoshligi Yaypan, Nursux, Quddash, Buva, Toliq, Olg'or, Yulg'unzor, Oqqo'rg'on qishloqlarida kechgan. Buva davrida otin ayada, Valixon so'fi maktabida o'qiydi. Otasiga bosqon bosib, qarashadi. Otasi unga “Dala va Muxtor”, “Bahori donish”, “Bobo Ravshan” kitoblarini o'qib beradi. Oqqo'rg'on davrida Muhammadjon qorining jadid maktabida ta'lim oladi.

“Gulshani Dilafgor”, “Bolalar bog'chasi”, “Ajoyib ul-mahluqot” kitoblarini o'qiydi. Abdulla Avloniy, Tavallo asarlarini o'rganadi. 1919-1922-yillar. Maktablarda o'qiydi. (“Urfon” nomli maktabda, maktab “Istiqbol” maktabiga ko'chadi, u maktab- internatga aylandi, internat “Kommuna” maktabiga aylandi).

1922-1924-yillar. Pedagogika bilim yurti (Dorilmuallimin) da o'qiydi. Qori-Niyoziy 20 nafar talabani tanlab oladi. Ular orasida Abdulla Qahhor ham bor edi.

1924-yil. “Oy kuyganda” nomli birinchi she'riy hajviyasi “Mushtum” jurnalida bosiladi.

1925-yil. Toshkentga ishga keladi. Shundan yozuvchilik, jurnalistik faoliyati boshlanadi. “Norin Shilpiq”, “Nish”, “Gulyor”, “Mavlon kufur”, “Yalangoyoq” taxalluslarini qo'llaydi.

1926-1929-yillar. SAGUning ishchilar fakultetida o'qiydi. 1929-yil. Qo'qonda malaka oshirish kursida muallim, “Yangi Farg'ona” gazetasida mas'ul kotib, “Chig'iriq” bo'limining boshlig'i. 1930-yil. Toshkent shahriga ko'chadi.

1930-1933-yillar. SAGUning pedagogika fakultetida o'qiydi. 1932-yil. “Qishloq hukmi ostida” nomli birinchi kitobi nashr etiladi. So'ng “Olam yasharadi”, “Tangrining kulgusi” kitoblari chiqadi.

1933-yil. “Qotilning tug'ilishi” qissasi yoziladi.

1933-35-yillar. Til va adabiyot instituti aspiranti.

1938-yil. O'zbekiston Davlat nashriyoti badiiy adabiyot bo'limida muharrir.

1939-46-yillar. “Qo'shchinor” romani “Sharq yulduzi” jurnalida e'lon qilinadi.

1943-yil. “Sovet adabiyoti” jurnalida mas'ul kotib.

1944-yil. Urush qahramoni Ahmadjon Shukurov haqida “Oltin yulduz” qissasini yozadi. Shuningdek, Ikkinchi jahon urushi yillarida qahramon Qo'chqor Turdiyev haqida “Dardaqdan chiqqan qahramon” qissasini yozadi.

1947-yil. “Qo'shchinor” romani alohida kitob shaklida bosilib chiqadi.

1949-yil. “Yangi yer” (“Shohi so'zana”) komediyasini yozadi.

1950-yil. “Qo'shchinor” romani “Qo'shchinor chiroqlari” nomi bilan qayta nashr etiladi.

1951-yil. “Shohi so'zana” (“Yangi yer”) komediyasi Davlat mukofotiga sazovor bo'ladi.

1953-yil. “Og'riq tishlar” komediyasi yoziladi.

1954-56-yillar. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi.

1957-yil. “Sarob” romani qayta nashr etildi.

1958-yil. “Sinchalak” qissasi yozildi.

1959-yil. “Zilzila” qissasi yaratildi.

1962-yil. “Tobutdan tovush” qissasi yozildi.

1965-yil. “O'tmishdan ertaklar” qissasi Respublika mukofotiga sazovor bo'ldi.

1966-yil. “Ayajonlarim” komediyasi yozildi.

1967-yil. O'zbekiston Xalq yozuvchisi unvoni berildi.

1968-yil. “Muhabbat” qissasi chop etildi.

1968-yil 25-mayda vafot etadi.

1968-yil. “Tobutdan tovush” komediyasi yangidan satira teatrida qo'yildi.

So'z zargariga bag'ishlangan veb sahifa

Abdulla Qahhor haqidagi saytning tuzilishi.



Abdulla Qahhor... Uni so'z zargari, temirchining zargar o'g'li, yelkasini haqiqat silagan adib deya ko'p e'tirof etishadi.

Abdulla Qahhorning o'zbek adabiyotida tutgan o'rni beqiyosdir. U ajoyib meros qoldirdi. Undan meros bo'lib qolgan adabiy an'analarning umri boqiydir. Garchi bu olijanob inson olamdan o'tgan bo'lsa-da, asarlari abadiy tirikdir. Uning romanlari, p'yasalari, hikoya va qissalari hamisha yangi, ohori to'kilmagan, hamisha kitobxonlarga ma'naviy ozuqa beradi. Abdulla Qahhor zargarona ijod qilgan, uningday haqiqiy san'atkor, o'z ishining mohir ustasi bo'la olgan, hamisha sarbaland yurib, o'z xalqi bilan iftixor etgan mag'rur yozuvchigina chinakam baxtli ijodkordir.

Veb sahifamizda Abdulla Qahhorning ana shu qirralarini yoritib berishga harakat qildik.

Saytimiz "Bosh sahifa", "Umr solnomasi", "Yodnoma", "Hikmatlar", "Asarlar" kabi bo'limlardan iborat bo'lib, bu bo'limlarda Siz Qahhorning umr solnomasi, u haqidagi adabiyotshunos olimlar va u bilan hamnafas bo'lgan insonlarning qimmatli xotiralari, Qahhor asarlari, uning adabiyot va uning muammolariga oid qarashlari bilan tanishasiz.

O'ylaymizki, siz veb sahifadan o'zingizga kerak bo'lgan ma'lumotlarni albatta topasiz...

O'yilar

...Hozirgi adabiyotimiz naqadar yaxshi, naqadar katta bo'lmasin, kelajakda yaratiladigan buyuk o'zbek adabiyotining poydevori, faqat poydevori bo'lib qoladi.

Hayot- magnit, o'ziga tortadi, yozuvchi shu magnitni o'ziga yuqtira olsagina kitobxonni o'ziga tortadi.

Chiroyli lof-qofdan xunuk haqiqat yaxshi.

Adabiyot atomdan kuchli, lekin uning kuchini o'tin yorishga sarf qilish kerak emas.

Yozuvchi o'z ona tilisi ustiga o'z zamonasining boy madaniy tilini bilmasdan qanot bog'lamaydi. Buning misolini adabiyotimiz tarixida, hozirgi adabiyotimizda ko'rishimiz mumkin.

Yozuvchi... pokiza, chiroyli, burdli, subutli, haqgo'y bo'lishi kerak.

Yozuvchi yoshligida yoshligiga rioya talab qilsa talantiga shira tushadi, erta qariydi, keyin qariligida qariligiga rioya talab qiladi-yu umum adabiyot gazini ko'rganida qunushadi, inqillaydi... bizning yoshlarimiz toy bo'la turib o'tning tepkisini ko'taradigan chayir, chaqqon, har qanday katta galadan ham uloqni olib chiqib, xalqning sovriniga sazovor bo'ladigan chavandoz otlar bo'lib yetishyapti.

Yozuvchini hech qachon hech kim ko'tarmaydi. Yaxshi yozuvchini yaxshi asarlari ko'taradi, yaxshi yozuvchi ko'tarilib ketganini hatto o'zi bilmay qoladi.

Yozuvchi o'z ijodiy ishidan hech qachon qanoat hosil qilmaydi, qanoat qilgan kuni, menimcha, yomon qarigan laqma sopolga aylanadi.

Yozuvchi biron asar yozish uchun qo'lga qalam olganda hammadan burun ko'z oldiga shu narsani o'qiyotgan o'quvchini keltirsin, asarning har bir satri ko'z oldidan o'tganida chehrasida bo'ladigan o'zgarishni ko'rib tursin. Yozuvchi o'zini kattakon, bilimdon, yuksak zavq egasi bo'lgan kishi oldida imtihon berayotganday sezsin.

QAHHOR.EDUNET.UZ



San'atkor

Konsert odatdagicha "navbatdagi nomerimizda... Kelganlaringizga rahmat, o'rtoqlar" bilan tamom bo'ldi. Nomi chiqqan ashulachi - san'atkordan boshqa hamma xursand bo'lib tarqaldi. San'atkor tajang edi: tanaffus vaqtida zalga chiqqan edi, bir traktorchi uni savodsizlikda aybladi. Traktorchi tanqid qilganiga san'atkor asti chiday olmas edi: traktor qayoqda-yu, masalan "chorzarb " qayoqda, traktorist qayoqda-yu, ashulachi qayoqda!

San'atkor uyiga ketgani izvosha o'tirganida yana tutaqib ketdi: "Hech bo'lmasa aytadigan ashulangni o'rgan, so'zlarini to'g'ri ayt" emish! Nimasini bilmayman, nimasi to'g'ri emas? Meni shu vaqtgacha muxbirlar, yozuvchilar ham tanqid qilgan emas, formalizm, naturalizmlardan o'tdim- hech kim otvod bergani yo'q. Otvod berish qayoqda, hech kim meni og'ziga ham olmadi. Endi bir traktorist tanqid qilar emish!..

San'atkor izvosha hayron qoldirib, o'zidan-o'zi g'uldirab borar edi. Uyda xizmatchi ovqat qilib qo'ygan ekan, san'atkorning og'zidan hech narsa o'tmadi – ikki piyola choy ichdi, xolos. Unga turib-turib nash'a qilar edi: "Ashulani mexaylistik aytar emishman! Tovushim yomon bo'lsa nega plastinkaga oldi? Tanqid deganiga endi bu kishining ham tanqid qilgilari kelipti... Amali traktorist... Obbo!.."

- O'qishga bordingizmi?- dedi xizmatchiga qovog'ini solib.

- Bordim...- Xizmatchi ikki haftadan beri savod maktabida o'qir edi.

- Xizmatchisi savod maktabida o'qiyotgan bir kishini traktorchi savodsiz, desa alam qilmaydimi?- dedi san'atkor o'zicha bo'g'ilib,- "labingdan bo'lsa olsam, e, shakarlab", deganim u kishiga yoqmapti, "bo'lsa" emas, "bo'sa" emish! O'zi bilmaydi-yu, menga o'rgatganiga kuyaman! Senga o'xshagan savodsizlar "bo'sa, bo'masa" deydi. Artist kulturniy odam – gapni adabiy qilib aytadi – "bo'lsa – bo'lmasa" deydi. Pojarni "gugurti yerga tashlamang" dedi, rejisserimiz esa "gugurtning yerga tashlamang" dedi. Qanday chiroylik! Pojarnimi, pojarningmi? Shoshma, nima uchun pojarni? Pojarni, albatta! Rejisserimiz juda kulturniy odam. Odam degan mana shunday bo'lsa, urushsa ham xafa bo'lmaydi kishi – ikki gapning birida "ta'bir joiz ko'rilsa" deb turadi. Bu traktorist menga shuncha dashnom berib, ko'ngil uchun bir marta "ta'bir joiz ko'rilsa" demadi.

Xizmatchi daftar-qalam keltirib, san'atkorning oldiga qo'ydi.

- "J" ning kattasi qanday yozilar edi? Domlamiz bir kuni ko'rsatgan edi, esimda qolmapti.

San'atkorning jahli chiqdi:

- Endi "J" ga keldingizmi? Barjom deganda yoziladi. Kechagi barjom og'zi ochiq qolipti, gazi chiqqandan keyin bir pulga qimmat. Siz ham dunyoga kelib kulturniy bo'lsangiz-chi!.. Burningiz terladi, arting, ta'bir joiz ko'rilsa!

San'atkor o'rnidan turib yotoqqa kirib ketdi.

- Yotasizmi?-dedi xizmatchi narigi uydan.

- Nima edi?

- "J"ning kattasini ko'rsatibbermadingiz, ertaga domla so'raydigan edilar. Qanaqa yoziladi?

- Kichigini yozib qattiqroq o'qing!

San'atkor yechinib ko'rpaga kirdi. Xizmatchi chiroqni o'chirib chiqdi. San'atkor ko'zini yumdi, ko'ziga g'ira-shira qorong'u zaldagi son-sanoqsiz kallalar ko'rindi. Bular ichida eng kattasi traktoristning kallasi, u iljayar edi.

- Afting qursin! – dedi san'atkor va narigi yonboshiga ag'darildi.

Hayal o'tmay uyquga ketib hurrak otdi. Uning hurragi ham nechukdir adabiyroq edi: "Pluq-qum-prr...pluq-qum-prr..."

1936-yil

Loyiha hamkorlari:



Toshkent shahar O'qituvchilarni qayta tayyorlash va malaka oshirish instituti

Toshkent shahar Sergeli tumani hokimiyati

Toshkent shahar Sergeli tumani XTBB

Loyiha koordinatori: Liliya Nikolenko

Loyiha menedjeri: Vadim Navotniy